

**MUHAMMAD RAHIMXON II FERUZNING XIVA
XONLIGIDAGI KUTUBXONALARI**

Abdurahmonova Nazokat Davlatboy qizi

Namangan davlat universiteti talabasi

Аннотация. Mazkur maqolada o'zbek davlatchiligi tarixida muhim ahamiyat kasb etgan Xiva xonligi va uning Muhammad Rahimxon II Feruzning hukmronligi davrida xonlikdagi kutubxonalar faoliyati va ularning o'ziga xos xususiyatlari tarixiy manbalar asosida atroflicha tahlil etilgan.

Калит so'zlar: Xiva xonligi, kutubxona, Muhammad Rahimxon II, fan, madaniyat, antalogiya, adabiyot, Tozabog' kutubxonasi

**БИБЛИОТЕКИ МУХАММАДА РАХИМХАНА II ФЕРУЗА В
ХИВИНСКОМ КОРОЛЕВСТВЕ**

Абдурахманова Назокат дочь Давлатбая

Студент Наманганского государственного университета

Аннотация. В данной статье на основе исторических источников подробно анализируется деятельность библиотек в ханстве и их специфика в период правления Хивинского ханства, получившего значение в истории узбекской государственности и Мухаммад Рахим-хана II Феруза.

Ключевые слова: Хивинское ханство, библиотека, Мухаммад Рахим-хан II, наука, культура, антология, литература, библиотека Тозабог.

**LIBRARIES OF MUHAMMAD RAHIMKHAN II FERUZ IN THE
KINGDOM OF KHIVA**

Abdurahmanova Nazokat Davlatboy's daughter

Abstract. *In this article, the activities of libraries in the Khanate and their specific characteristics during the reign of Khiva Khanate, which gained importance in the history of Uzbek statehood and Muhammad Rahim Khan II Feruz, are analyzed in detail based on historical sources.*

Keywords: *Khanate of Khiva, library, Muhammad Rahim Khan II, science, culture, anthology, literature, Tozabog library*

XVIII – XIX asrda Xiva xonligida madaniyat va fan ancha rivojlangan bo'lib, kitob yig'ish va kutubxonalariga e'tibor katta edi. Bu davrda shakllanib kelgan xonlikdagi kitoblar ko'chirish, ularni to'plash, ulardan nusxa olish kabi ishlar Xiva xoni Muhammad Rahimxon II davrida yanada rivoj topadi. Feruz taxallusi bilan o'zi ham ko'plab asarlar ijod etgan bu hukmdor mamlakatda sodir bo'layotgan og'ir siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga qaramay xonlikning madaniy sohadagi taraqqiyoti uchun shart-sharoit yaratishga intildi. Feruz boshchiligida saroyning 30 nafar shoir she'rlari kiritilgan antologiya chiqarilgan.

1908-yilda Xivaga kelgan turkiyshunos A.N.Samoylovich ma'lumot berganidek, «uning umuman kitobga, undan nusxa ko'chirishga bo'lgan ishtiyoqi junun darajasida» bo'lgan Muhammad Rahimxon Feruz ba'zida davlat ishlaridan toliqib, kutubxonaga kirar, o'z buyrug'iga ko'ra xattotlar ko'chirgan yangi kitoblarni varaqlab o'tirardi. Darvoqe, xonning ota-bobolaridan to'planib kelinayotgan, xon amri bilan ko'paytirilayotgan juda boy kutubxonasi bor edi. Xiva kutubxonalarida qo'lyozma matnni husnixat va go'zal naqshlar bilan bezash maqsadida musavvirlar hamda moxir xattotlar uzoq, qunt bilan ishlar edilar. Kutubxonadagi bunday ishlar Muhammad Rahimxon Feruz hukmdorligi yillarida sezilarli ravishda kengaydi. Xonning o'zi ham ilm-fan, she'riyat va xattotlik mashg'ulotlariga ko'p vaqt ajratar edi. A.N.Samoylovich ta'biri bilan aytganda, «ilm-fan va san'atning ma'rifatparvar homiysi» Muhammad Rahimxon II o'z

saroyida kutubxona qoshidagi ustaxonaga katta e'tibor bilan qarab, tez-tez buyurtmalar berar edi[1].

Muhammad Rahimxonning ikkita kutubxonasi bo'lib, biri qarorgoh-Ark ichkarisida, yana biri yozgi qarorgoh-shahar tashqarisidagi Tozabog' saroyida joylashgan edi. Bu yerda kitoblar har doim yangi tomlar va nusxalar bilan to'ldirib borilgan hamda barchasi ro'yxatga olingan. Tozabog' kutubxonasi juda boy bo'lib, bu yerda Sharq qo'lyozma kitoblaridan tashqari rus tilidagi jurnallar ham saqlanardi. Arkda saqlanayotgan 560 nomdagi qo'lyozma kitoblarning katalogi tuzilgan edi. Kutubxonada tarixiy asarlar, monografiyalar juda ko'p bo'lib, ulardan: «Allaqulixon tarixi», «Rahimqulixon tarixi», «Muhammadaminxon tarixi» kabilar hozirga qadar saqlanib qolgan. Kitoblar juda katta mahorat bilan muqovalangan va bezatilgan bo'lib, kutubxonada maxsus muqovasoz ustalar mashhur hattotlar bilan birgalikda ishlagan. Taniqli hattotlar Muhammad Yoqub Xoja va Xudoy Bergan xon Sayid Rahim II tomonidan buyurilgan ishlarni bajarganlar. Umuman olganda Xiva xonlari kutubxonalari bebaho xazina, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu kutubxonalarda ixcham kataloglar tuzilgan, kitoblarning muqovalariga ularning nomlari bitilgan yorliqlar yopishtirilgan edi. A.N.Samoylovichning ko'rsatishiga qaraganda, qishki kutubxona Arkning g'arb tomonidagi binoning yuqori qavatida, chog'roqqina xonada joylashgandi. Xonaning shimol taraf devorida javon, kunbotar tarafvda esa ikkita oynavand eshikchali javon turardi. Javonlarning bironvda kichkinagina qo'lyozma katalogda 500 ta qo'lyozma va kitoblarning nomi hamda raqamlari ko'rsatilgan. Kunbotar tarafdagi javonda esa tibbiyotga oid ko'plab kitoblar mavjud. Orqadagi javonda bo'lsa, tarixiy, tasavvufiy hamda siyosatga oid asarlar, har xil qo'lyozma va bosma kitoblar bor edi. Kitoblar asosan fors tilida, arabchasi kamroq. Turkiy tildagi adabiyotlar esa chig'atoy turkiysi, usmonli (rumli) hamda qozoniy-tatarcha edi. A.Yazberdiev bu kutubxonada 550 ta kitob mavjud bo'lgan deydi. A.I. Kormilitesh esa ushbu kutubxonalarda 1200 ga yaqin kitoblar bo'lganligini yozadi.

Tozabog'dagi xonning kutubxonasini 1908 yilda o'z ko'zi bilan ko'rgan A.N.Samoylovich u yerda hammasi bo'lib, 200 ta atrofida bosma va qo'lyozma kitoblar bo'lganini qayd etgan. Har bir qo'lyozmaning muqovasi chetiga oppoq qog'ozda yorliqcha yopishtirilgan bo'lib, unga kitob nomi, jildi hamda qo'lyozma va bosma asar ekanligi va mavzusi, ya'ni nasrda yoki nazmda bitilganligi yozib qo'yilgan. Arkdagi kutubxonadagi kitoblarning katalogini ko'rgan A.N.Samoylovich bu yerdagi kitoblarning katalogi yo'q, deb yozadi.

Xivaning Chor Rossiyasi tomonidan zabt etilishi oqibatida O'rta Osiyo xalqlarining erki, insoniy xuquqlari poymol qilindi. Ular moddiy boyliklarini o'z tasarrufiga tortish bilan qanoatlanmay, ma'naviy mulkini ham talon-taroj etdi. «Kaufman kelib, Arkka kirib, taxti Xorazmshohiyda o'ltirgandan» keyin Xorazm xazinasidan juda katta boylik Peterburgga jo'natiladi. Qimmatbaho narsalar bilan birgalikda, xon alohida saqlaydigan 300 jilddan ortiq nodir qo'lyozma kitob ham Peterburgga jo'natilgandi. Bayoniy bu ma'lumotlarni ichki bir taassuf, norozilik ohangi bilan yozgan edi: «Yana bir uyda uch yuz mujallad yozma muzayyan kitoblar bor erdi, ...Peterburgga yuborildi»[2]. General N.K.fon Kaufman topshirig'iga ko'ra sharqshunos A.L.Kun Xiva saroyidan 300 qo'lyozma, 18 Qur'on, 50 darslik kitoblarini musodara qilgan. 140 jildli bu nodir qo'lyozmalardan 129 tasi tarixiy asarlar edi. Sharq shoirlarining 30 jildli asarlari, 50 jildli fiqh ilmiga doir kitoblar Peterburgga Xalq kutubxonasiga yuborildi[3].

A.Samoylovich ta'biri bilan aytganda, «umuman kitobga, undan nusxa ko'chirishga bo'lgan ishtiyoqi junun darajasida» bo'lgan Feruzga shunday ajoyib va nodir kitoblarning Chor Rossiyasi tomonidan musodara qilinishi va Peterburgga yuborilishi juda qattiq ta'sir qilgan, albatta. Chor Rossiyasi kelganidan keyingi Feruz obro'si, davlatning bir qismi yo'qolgani, shuningdek, ularning ma'naviyat va madaniyatga qilgan tajovuzi xalqni hamda Feruzni juda tang ahvolga solib qo'ydi. Bunday tanglik va karaxtlik holatidan chiqib ketish uchun, xalqning ko'nglini ko'tarish, yana madaniyat va iqtisodiyotni rivojlantirish lozim edi. Feruz saroyga olimlarni, sozanda va xattotlarni yana to'play boshladi, ularga o'zi homiylik qiddi. To'plangan tarixiy va badiiy asarlar va amaliy san'at

yodgorliklaridan bir qismi Toshkent, Nijniy Novgorod, 1904 yilda AQShda xalqaro ko'rgazmalarda namoyish etiladi. Bu nodir va noyob san'at asarlari Xorazmning betakror madaniyatiga jahonda katta qiziqish uyg'otadi. Bu xiddagi tadbirlar saroy kutubxonasining boyib borishiga sabab bo'ldi. Aftondil Erkinov hamda Shodmon Vohidovlarning aniqlashlariga qaraganda, Muhammad Rahimxon Feruzning hukmronlik yillarining oxirgi davrlariga kelib, saroy kutubxonasidagi jami qo'lyozma va toshbosma kitoblar 914 ta (shulardan 604 tasi qo'lyozma, 310 tasi toshbosma asarlar)ni tashkil etgan. Bular 1911-1912 yillarda yozilgan saroy kutubxonasining katologi orqali ma'lum bo'lgan.

Xulosa qilib shuni qayd etish mumkinki, Muhammad Rahimxon II davrida Xiva xonligida madaniy hayot rivojlandi. Ayniqsa kutubxonalarga e'tibor kuchaydi. Bu orqali xon o'z yurtida ilm-ma'rifatning taraqqiyotini o'ylagan edi. Ma'rifatli hukmdor Muhammad Rahimxon II yuqorida qayd etib o'tilgan ishlaridan tashqari yana ko'plab qimmatli asarlarni masjid va madrasalarga vaqf qilgan. Ularning umumiy qiymati va hajmi nihoyatda katta bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Erkinov A. Polvonov N. Aminov H. Muhammad Rahimxon II-Feruz kutubxonasi. –Toshkent:Yangi asr avlodi. 2010. –B. 19
2. Muhammad yusuf Bayoniy. Shajarayi Xorazmshoxiy. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1994. –B. 53.
3. O'zbekistonning yangi tarixi. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. 1-kitob. –Toshkent: Sharq, 2000. –B. 145.